8 – AMALIY ISHI
MAVZU. ARXIVATORLAR, ANTIVIRUS DASTURLARI BILAN ISHLASH

Ishning maqsadi. Talabalarda NC va Total Commander dasturi xaqida qisqacha nazariy ma’lumotlar va amaliy kunikmalar hosil qilish.

Kutilayotgan natija: Talabalarda qobiq dasturi bilan ishlash hamda ularni sozlash haqida amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Amaliyot jihozlari: Kompyuter, Windows operatsoin tizimi, WinRAR arxivator va Total Commander dasturlari.

Nazariy ma’lumotlar.

Muayyan qoida asosida fayllarni siqish faylni arxivlash deb ataladi. Arxivlash jarayonida ba’zi fayllar 10-20 marta siqiladi.

Hozirgi vaqtda arxivatorlarning har xil turlari mavjud bo‘lib, ular bir-biridan siqilish, tezlik, foydalanish qulayligi va imkoniyatlari jihatidan farq qiladi.

Foydalanuvchi kengaytmasi bo‘yicha turli xil arxiv fayllarini ajratadi. Siqish turi ushbu arxiv formati deb ataladi.

Keling, bugungi kunda keng qo‘llaniladigan **RAR, ZIP** va **ARJ** arxivatorlarini ko‘rib chiqamiz.

Arxiv fayli buyrug’ining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

1. ZIP holati arxiv_nomi [fayl_nomlari] yoki.

2. ARJ buyrug’i holati arxiv_nomi [katalog\] [fayl_nomlari].

Buyruqda berilgan parametrlarning vazifalari quyidagicha:

✓ Buyruq parametri ARJ nima qilishini ko‘rsatadigan bitta harfdir. **Masalan:** A - arxivga fayllar qo‘shish, N - fayllarni arxivga o‘tkazish va boshqalar;

✓ “–” yoki “/” belgilar bilan boshlanadigan holat parametri odatda quyidagilarni anglatishi mumkin;

A (Qo‘shish) - barcha fayllarni arxivga qo‘shish;

U (yangilash) - arxivga yangi fayllar qo‘shish;

F (Freshen) - arxivga mavjud fayllarning yangi turlarini qo‘shish;

✓ Arxiv_nomi – arxiv nomi ko‘rsatiladi. Agar bu fayl mavjud bo‘lmasa, u yaratiladi;

✓ Katalog – ARJ arxivatori uchun fayllar joylashgan papka nomini belgilaydi. Agar u berilmagan bo‘lsa, joriy papka katalog sifatida olinadi;

✓ [fayl_nomlari] arxivlanadigan fayllarning bo‘sh joylar bilan ajratilgan nomlari. * belgilaridan ham foydalanish mumkin. Agar fayl nomi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, joriy jilddagi barcha fayllar arxivlanadi;

Windows uchun arxivatorlar.

Windowsda fayl yoki papkalarni arxivlash uchun arxivlanadigan fayl yoki papkaning ustida sichqonchani o‘ng tugmasini 1 - marotaba bosing va paydo bo‘lgan **kontekst yordamchi** menyusidan **"Добавить в архив"**ni yozuvini tanlang. Buyruqni tanlagandan so‘ng quyidagi oyna paydo bo‘ladi.



Hosil bo‘lgan bunday oynadan **“Имя архива”** bo‘limiga arxiv nomini kiritib, **“Формат архива”** bo‘limidan arxiv turini tanlab **OK** tugmasini bosamiz va fayl yoki papkani arxivlanganini ko‘ramiz. **Masalan:** 

papkani arxivlab ko‘raylik. Buning uchun 

papka ustida sichqoncha o‘ng tugmasini bir marotaba bosish orqali, hosil bo‘lgan **kontekst yordamchi menyu**dan **“Добавить в архив”** bandini tanlaymiz va hosil bo‘lgan oynadan **“Имя архива”** bandiga ixtiyoriy so‘z kiritib papkani arxiv nomini qo‘yishimiz mumkun yoki dastlabki xolatdagi nomi tursa ham bo‘laveradi. **“Формат архива”** bo‘limidan arxiv turini ya’ni **RAR** yoki **ZIP** tipidagi arxiv turin tanlab so‘ngra **OK** tugmasini bosamiz. Natijada **1,09 МБ (1**

148 928 bayt)li 

papkasi **80,9 КБ (82 921 bayt)**li

arxiv fayliga aylanadi.

Endi **WORD** faylini ham arxivlab ko‘ramiz. Buning uchun **WORD** fayli ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini 1 - marotaba bosib kontekst yordamchi menyudan **“Добавить в архив”** bandini tanlaymiz. Agar fayl arxiviga maxsus parol bilan ximoyalash kerak bo‘lsa u holda **“Параметры архивации”** qatoridan **“Заблокировать архив”** so‘zi ustiga mayoqcha o‘rnatiladi **“Установить пароль”** tugmasi bosiladi. Navbatdagi ochilgan **“Ввод пароль”** oynasiga parol kiritib quyi qismidagi **“Шифровать имена файлов”** ustiga mayoqcha o‘rnatilib **OK** tugmasini bosib parollash oynasini yopamiz va asosiy oynadagi **OK** tugmasini ham bosib ishni yakunlaymiz.



1 – rasm. Fayllarni arxivlash jarayoni.



2 – rasm. Arxivlashni maxsus kod (parol) bilan ximoyalash.



3 – rasm. Faylning oldingi va arxivlashdan keyingi xususiyatlari.

Arxivga olingan faylni arxivdan chiqarish uchun fayl ustida sichqoncha o‘ng tugmasi bosilib xosil bo‘lgan yordamchi kontekst menyudan **“Извлечь в текущую папку”** buyrug’i tanlanadi.



4 – rasm. Arxivlashgan fayllarni arxivdan chikarish.

Antiviruslarning keng tarqalgan turi bu **ESET NOD32** antivirusidir. Antivirus orqali viruslardan himoyalanish quyidagicha amalga oshiriladi.

Eng birinchi navbatda **ESET NOD32** dasturini internet orqali yuklab olamiz yoki yuklanib olingan tayyor dastur bolsa antivirus dasturi ustida sichqonchaning chap tugmasi 2 – marotaba bosamizi yoki ushbu dastur ustida sichqonchaning o‘ng tugmasi bilan 1 – marotaba bosib xosil bo‘lgan **kontekst yordamchi menyu**sidan **Запуск от имени администратора** buyrug’ini tanlaymiz. Yoki antivirus dasturini sichqonchani chap tugnasini 1 – marotaba bosib tanlab olib klaviaturadan **ENTER** tugmasi bosiladi va dastur ishga tushiriladi So‘ngra xosil bo‘lgan oynadan **ДА** tugmasi bosiladi.





Keyingi oynadan **ESET NOD32** Antivirus tugmasi bosiladi.



Dasturning o‘rnatilishi jarayoni boshlanadi. Bu ko‘p vaqt talab etmaydi.



Dasturning o‘rnatilishi jarayoni yakunlanadi menyu satrida antivirus **ESET NOD32** yorlig’i paydo bo‘ladi.



Antivirus dasturini ishga tushirib olamiz. **ESET NOD32** antivirus dasturining dastlabki oyna ko‘rinishi quyidagi rasmda tasvirlangan.



Barcha ishlar normal holatda bajarilgandan so‘ng bizning keyingi qiladigan ishimiz bu antivirusimizga internet tarmog’i orqali antivirus bazasini yuklab olishimiz kerak bo‘ladi. Yuklab olingan bazaning qaysi sanada yaratilgan ekanligi uning sig’imi necha megabaytdan iborat ekanligini bilishimiz uchun yuklab olingan **BasesNOD** papkasining ichidagi **VER** kengaytmalik fayl ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib yordamchi kontekst menyudan **Свойства** bandini tanlaymiz va ochilgan oynadan yuqorida ta’kidlangan ma’lumotlarni quyida keltirilgan rasmlarda ko‘rishimiz mumkun.





Antivirus asosiy oynasiga qaytib u yerdan 2 – bandi ya'ni **Обновление** bo'limiga o'tib yangi bazani o'rnatamiz. Bu amallar quyidagicha amalga oshiriladi.



Yuklab olingan **BasesNOD** papkasiga kiramiz va oynaning o'rta yuqori manzil yozilgan qismiga sichqonchaning chap tugmasini 1 – marotaba bosib manzilni belgilab va undan nusxa olamiz. Papka kompyuterning qayerida joylashgan bo'lsa o'sha joyning manzili chiqadi. **Masalan: C:\Users\azizb\Desktop\BasesNOD**



Olingan nusxani antivirus dasturi ustida klaviaturadan **F5** tugmasini bosib manzil qo'yilishi lozim bo'lgan yerga manzilni joylaymiz **Добавить** tugmasini keyin esa **OK** tugmasini bosib chiqib so'ngra **Обнавить** tugmasini bosamiz.


ESET NOD32 Antivirus
Дополнительные настройки
Компьютер
Интернет и электронная почта
Обновление
Обновить
Дополнительно
Служебные программы
Интерфейс
Выбранный профиль:
Мой профиль
Профили...
Обновить настройки выбранного профиля
Сервер обновлений:
http://update.tas-ix.net/
Изменить...
Имя пользователя:
Пароль:
Регулярное обновление
Тестовое обновление
Дополнительные настройки обновления:
Настройка...
Очистить кэш обновлений:
Очистить
Не отображать уведомление об успешном обновлении
Поиск
ОК
Отмена
По умолчанию


Список серверов обновлений
Серверы обновлений:
Список серверов обновлений
http://update.tas-ix.net/
Добавить
Удалить
Изменить
ОК
Отмена


Список серверов обновлений
Серверы обновлений:
C:\Users\azizb\Desktop\BasesNOD
Список серверов обновлений
http://update.tas-ix.net/
Добавить
Удалить
Изменить
ОК
Отмена


ESET NOD32 Antivirus
ESET NOD32 ANTIVIRUS 6
Обновление
Сканирование ПК
Обновление
Настройка
Служебные программы
Справка и поддержка
Состояние защиты
База данных сигнатур вирусов актуальна
Обновление не требуется — база данных сигнатур вирусов актуальна.
Последнее успешное обновление: 09.03.2023 15:06:55
Версия базы данных сигнатур вирусов: 8193 (20130404)
Обновить сейчас


ESET NOD32 Antivirus
ESET NOD32 ANTIVIRUS 6
Обновление
Сканирование ПК
Обновление
Настройка
Служебные программы
Справка и поддержка
Состояние защиты
Обновление базы данных сигнатур вирусов
Ход обновления: 16158 КБ/164700 КБ
Имя файла: C:\Users\azizb\Desktop\BasesNOD\nodCB25.nup
Отменить обновление



Настройка bo‘limiga o‘tib u yerdan **Перейти к расширенным параметраммы** bo‘limini tanlaymiz va natijada **Дополнительный настройки** oynasi ochiladi. U yerdan **Компьютер** bo‘limi tanlanib ushbu bo‘limga tegishli bo‘lgan **Защита от вирусов и шпионских программ, съемные носители, HIPS** oynalarida quyidagi rasmlarda keltirilgan sozlamalarni amalga oshirib olamiz.









Sozlamalar yakunlangandan so‘ng endi kompyuterimizni to‘lliq tekshiruvdan **Сканировать ПК** bo‘limidan o‘tkazib olamiz. Bu bo‘lim kompyuetrni barcha

disklarini, sektorlarini viruslardan tekshirib agarda virus topilsa ularni bartaraf qilib beradi. Demak yuqoridagi amallar quyidagi tartibda bajariladi.

Birinchi navbatda **Сканировать ПК** bo‘limi ochiladi va **Выброчное сканирование** qisni tanlanadi. Keyingi bajaradigan ishimiz ochilgan oynadan **Профиль сканирования** bo‘limidan **Деталбное сканирование** bandi tanlanadi. So‘ngra **Этот компьютер** old tomoniga mayoqcha belgisi o‘rnatilib **Настройка** tugmasini bosamiz.





Ochilgan **Настройка** oynasidan **Очистка** undan so‘ng **Уровень очистки** oynasidagi rolikni **Тщательная очистка** tomon suramiz va **OK** tugmasini bosib tasdiqlab oynani yopamiz.





Har gal kompyuterni to‘liq antivirus tekshiruvdan o‘tkazganimizda yuqoridagi sozlamalarni qaytadan bajarmasligimiz uchun **Сохранить** so‘ngra **Сканировать** tugmasini bosib kompyuterni antivirusda tekshirishni boshlaymiz. Bu amal biro z vaqtni o‘z ichiga oladi.



Amaliy mashg’ulotlarini o‘tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari.

Berilgan nazariy ma’lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma – ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar).

1. Total Commander dasturida yangi papka yarating va uni guruhingiz nomini qo‘ying.

2. Total Commander dasturida yangi matn fayl yarating va uni o‘z ism sharifingiz bilan nomlang.

3. Bu faylga o‘z tarjimaiy holingizni kiriting.

4. Faylni o‘zingiz yaratgan papka ichiga xotirada saqlang.

5. Fayl mazmunini ko‘rish uchun qaysi tugmacha bosiladi?

6. Faylni qayta taxrir qilish uchun qaysi tugmacha bosiladi?

7. Yangi papka yoki katalog yarating va uni fakultetigiz nomini qo‘ying.

8. Yaratgan matn faylingizdan ushbu papkaga nusxa ko‘chiring.

9. Faylni qayta nomlash uchun nima qilinadi?

10. Yaratilgan faylni arxivlang va arxivdan oching.

11. Papka, fayl va fayllar guruxini o‘chirish uchun qaysi tugmacha bosiladi?

Nazorat savollari.

1. Faylni arxivlash deganda nimani tushunasiz va nima uchun kerak?

2. Fayllarni arxivlaganda hajmi qanday o‘zgaradi?

3. Arxivatorlar bir – biridan nimasi bilan farqlanadi?

4. Arxivning formati deganda nimani tushunasiz?

5. Qnday arxivlovchi dasturlarni bilasiz?

6. Qnday arxivni ochuvchi dasturlar mavjud?

7. Recuva dasturining vazifasi nimadan iborat uning avzalligi va kamchiliklari?

8. CCleaner dasturini ishlatish tartibi qanday?

9. Your Uninstaller PRO dasturining har bir bo‘limlari nima vazifani bajaradi?

Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar).

1. ESET NOD32 dasturini internet tarmog’i orqali yuklab oling va dasturni kompyuterga o‘rnating.

2. Antivirus ESET NOD32 dasturi to‘laligicha kompyuter xotirasiga o‘rnatilgandan so‘ng dasturning bazaviy holatini yangilang.

3. ESET NOD32 dasturi sozlamalarini amalga oshiring.

4. ESET NOD32 dasturi orqali shaxsiy kompyuter xotirasidagi mavjud viruslarni izlab toppish va ularnin zararsizlantiruvchi skanerdan o‘tkazing.

Nazorat savollari.

1. Axborot xavfsizligi haqida tushuncha bering.

2. Axborot xavfsizligiga tahdid turlari qanday?

3. Login tushunchasi va Parol tushunchasi.

4. Axborot xavfsizligining tabiiy va suniy tahdidlari haqida tushuncha bering qaysilar.

5. Avtorizatsiya haqida tushuncha bering.

6. Qanday antivirus turlari mavjud?